Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan boʻshatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi" deb belgilangan.

Mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga boʻlgan oʻz qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashgʻulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq toʻlashning belgilangan eng kam miqdoridan kam boʻlmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligini tushunish mumkin.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqi shaxsning mutlaq huquqidir.

Bandlik — fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, oʻz shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bogʻliq boʻlgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir. Fuqarolarga oʻzining ishlab chiqarishga va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalanish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan, shu jumladan haq toʻlanadigan ishni bajarish bilan bogʻliq boʻlmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish boʻyicha mutlaq huquq tegishlidir.

Mehnat Kodeksining 5 moddasida Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipi ekanligi belgilangan.

- Mehnat erkinligi har kimning mehnat qilishga boʻlgan oʻz qobiliyatlarini tasarruf etish, ularni qonun bilan taqiqlanmagan har qanday shaklda amalga oshirish, mashgʻulot turini, kasbni va mutaxassislikni, ish joyini hamda mehnat sharoitlarini erkin tanlash huquqini anglatadi.
- Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarga muvofiq mehnat erkinligi mehnat shartnomasi erkinligida namoyon boʻlib, bu quyidagilarni anglatadi:
- xodimlar va ish beruvchilarning mehnat shartnomasini tuzishdagi erkinligini. Xodimni va ish beruvchini mehnat shartnomasini tuzishga majburlashga yoʻl qoʻyilmaydi. Ish beruvchi xodim bilan mehnat shartnomasini ushbu Kodeksda, qonunda yoki ixtiyoriy ravishda olingan majburiyatda ish beruvchining shartnoma tuzish majburiyati nazarda tutilgan hollarda tuzishi shart;
- mehnat shartnomasining shartnomaviy (asosiy va qoʻshimcha) shartlarini ushbu shartnoma taraflarining kelishuviga koʻra belgilashni;
- mehnat shartnomasini xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi kelishuvga koʻra oʻzgartirish imkoniyatini;
- har qanday mehnat shartnomasini ushbu shartnoma taraflarining kelishuviga koʻra istalgan vaqtda bekor qilish imkoniyatini;
- xodimning ushbu Kodeksda belgilangan tartibda mehnat shartnomasini oʻz tashabbusi bilan bekor qilish huquqini;

- Ø ish beruvchining xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ushbu Kodeksda mehnat shartnomasini bekor qilish uchun nazarda tutilgan asoslar mavjud boʻlganda va belgilangan tartibga rioya etilgan holda oʻz tashabbusi bilan bekor qilish huquqini hamda boshqa qonunda belgilangan hollarda, mehnat shartnomasida uni bekor qilishning qoʻshimcha asoslarini nazarda tutish imkoniyatini kafolatlaydi.

Har bir xodimga ish beruvchilar xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berishga majburdir. Xodimlar ham qulay mehnat sharoitlarini talab qilishga haqlidir.

Shu bilan birga ish beruvchilar “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston respublikasi qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi qonuniga va Mehnat kodeksining 20-bobiga asosan mehnat muhofazasini amalga oshirishlari zarur. **Mehnatni muhofaza qilish —** bu mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sogʻligʻi, ish qobiliyati saqlanishini taʼminlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimini amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu qonunning 5-moddasida Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilangan:[4]

- xodimning hayoti va sogʻligʻi ustuvorligini taʼminlash;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- barcha tashkilotlar uchun mehnatni muhofaza qilish sohasidagi talablarni belgilash;
- mehnatni muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshirish;
- xodimlarni himoya qiluvchi xavfsiz texnika, texnologiya va vositalarning ishlab chiqilishi va joriy etilishini ragʻbatlantirish;
- fan, texnika yutuqlaridan hamda mehnatni muhofaza qilish boʻyicha ilgʻor milliy va xorijiy tajribadan foydalanish;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan jabrlangan yoki kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;
- Xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Shuningdek, ish beruvchilar, korxona rahbarlari 1996-yil 29-avgustdagi 265-I-sonli “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”gi qonunidan kelib chiqib ham xodimlarga shart-sharoitlar yaratib berishi shartligi belgilangan.[5]

Mehnat kodeksida har bir shaxsning mehnat qilish huquqi kafolatlari batafsil tartibga solingan.

Mehnat kodeksining 3-moddasida Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bogʻliq boʻlgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari begilangan. Bularga:

mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashgʻulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;

mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;

mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;

mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;

xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yoʻl qoʻyilmasligi kiritilgan.

Har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega. Mehnat va mashgʻulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga boʻlgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bogʻliq boʻlmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashgʻulotlar sohasida biror-bir toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitishdir.[6]

Agar mehnat va (yoki) mashgʻulotlar sohasida oʻzini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitilish fakti ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi, shu jumladan kamsitishni bartaraf etish hamda oʻziga yetkazilgan moddiy zararning oʻrnini qoplash va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi toʻgʻrisidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkinligi kafolatlandi.

"Aholi bandligi toʻgʻrisida"gi qonunda aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, ishsizlik nafaqasi toʻlash tartibi belgilangan.

Mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Insonning munosib yashashi deganda, insonning yashash xarajatlarini (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, kommunal, transport, aloqa va boshqa) qoplash, shuningdek ta'lim olish, sogʻliqni saqlash, dam olish va boshqa ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega boʻlishi tushuniladi. Bugungi kunda Respublikada eng kam oylik ish haqi 1050000 (Bir million ellik ming soʻm) ni tashkil etadi.[7]

Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb tan olingan shaxsga u mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida roʻyxatga olingan birinchi kundan e'tiboran hisoblanadi va toʻlanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan boʻshatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi" deb belgilangan.

Homilador yoki bolasi bor ayollarning ishga joylashish huquqi konstitusiyaviy kafolat sifatida belgilandi. Homilador ayolni yoki uch yoshga toʻlmagan bolasi bor ayolni ishga qabul qilish rad etilgan taqdirda ish beruvchi rad etishning sabablarini ularga yozma ravishda ma'lum qilishi shart. Mazkur shaxslarni ishga qabul qilishni rad etganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Tibbiy xulosaga muvofiq homilador ayollarning ishlab chiqarish normalari, xizmat koʻrsatish normalari kamaytiriladi yoki ular avvalgi ishlaridagi oʻrtacha oylik ish haqi saqlangan holda yengilroq yoxud noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi boʻlgan ishga oʻtkaziladi.

Homilador ayolga yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillari ta'siridan holi boʻlgan ish berish masalasi hal etilgunga qadar, u ana shu sababdan ishga chiqmagan barcha ish kunlari uchun oʻrtacha oylik ish haqi saqlangan holda ishdan ozod etilishi lozim. Bu haqida Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida kafolatlab qoʻyilgan. Hamda Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha nafaqalar tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisida Nizom ga asosan homiladorlik va tugʻish davrida toʻlanadigan toʻlovlarni ham oʻz vaqtida toʻlashi shart.[8]

Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksining VI boʻlimi “Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari” deb nomlanib, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari deganda — ayrim toifadagi xodimlar uchun mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikning umumiy qoidalari qoʻllanilishini qisman cheklovchi yoxud qoʻshimcha qoidalarni nazarda tutuvchi qoidalarni belgilash tushuniladi.

Mehnat Kodeksining 389-moddada ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari tasnifi keltirilgan.

Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari quyidagi mezonlar boʻyicha tasniflanadi:

1) mehnat munosabatlarining subyektlari (ayollar, oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashgʻul shaxslar, nogironligi boʻlgan shaxslar, voyaga yetmaganlar) boʻyicha;

2) mehnat faoliyatining sohalari, tarmoqlari va turlari (pedagoglar va tibbiyot xodimlari, transport xodimlari va boshqalar) boʻyicha;

3) mehnat sharoitlarining ogʻirligiga va (yoki) zararliligiga qarab;

4) tabiiy-iqlim sharoitlariga qarab;

5) xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi mehnat munosabatlarining xususiyatlari (kasanachilar, masofadan turib ishlovchi xodimlar va boshqalar) boʻyicha.

Mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga muvofiq ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlarini tasniflashning boshqa mezonlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Shuningdek, 390-391-moddalarda Xodimlarning mehnat sohasidagi hamda muayyan mehnat turiga xos boʻlgan talablar yoki yuqori ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan shaxslarga alohida gʻamxoʻrlik qilish (mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari) bilan oʻzaro bogʻliq boʻlgan mashgʻulotlar sohasidagi huquqlarining asoslantirilgan tafovutlari, istisnolari, afzalliklari, shuningdek cheklovlarini belgilash chogʻida tegishli toifadagi xodimlarning ushbu Kodeksda va mehnat toʻgʻrisidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan barcha kafolatlari saqlanishi, bundan ushbu boʻlimda belgilangan, xodimlarning mazkur toifasi uchun ayrim kafolatlarni berish imkoni yoʻqligi bilan bogʻliq alohida istisnolar mustasnoligi belgilangan. Hamda ayrim toifadagi xodimlarga beriladigan kafolatlar darajasining pasayishiga, ularning huquqlari cheklanishiga, intizomiy va (yoki) moddiy javobgarligi oshishiga olib keladigan mehnatni huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari faqat ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va tartibda belgilanishi mumkinligi keltirilgan va kafolatlangan.

Ijtimoiy va huquqiy jihatdan kuchli himoya qilinishga muhtoj shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning oʻziga xos xususiyatlari kafolatlangan.

Shu bilan birga, *Konstitutsiyasining* 43-moddasida “Davlat fuqarolarning bandligini taʼminlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambagʻallikni qisqartirish choralarini koʻradi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda ragʻbatlantiradi” deb belgilab qoʻyilgan.

Davlat fuqarolarning bandligini taʼminlashi Davlatning funksional vazifasi hisoblanib, bu “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi qonunning 6-moddasida Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilab qoʻyilgan.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

- ish oʻrinlari tashkil etilishini ragʻbatlantirish va aholi bandligiga koʻmaklashish, shu jumladan ish oʻrinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali koʻmaklashish;

- ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralarini koʻrish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga koʻmaklashish;

- yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta’lim tashkilotlari, kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta’minlash boʻyicha choralarni amalga oshirish;

- aholi bandligi sohasida zamonaviy kasbiy standartlarni joriy etish, mehnatni normalashtirish hamda mehnatga haq toʻlash mexanizmlarini takomillashtirish;

- aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

- ishga joylashtirish jarayonlariga ilgʻor axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga koʻmaklashish boʻyicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

- Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolariga Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida koʻmaklashish, Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta’minlash.

Ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambagʻallikni qisqartirish choralarini koʻrishi ham qonun hujjatlarida, jumladan “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi qonunda aholini ish bilan ta’minlash, ishsizlikdan himoya qilish, ishsizlik nafaqasi toʻlash tartibi belgilangan.

Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb tan olingan shaxsga u mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxs sifatida roʻyxatga olingan birinchi kundan e’tiboran hisoblanadi va toʻlanadi.

Ishsizlik nafaqasi 12 oylik davr ichida koʻpi bilan 26 kalendar hafta davomida toʻlanadi. Shuningdek, ushbu qonunga asosan Xususiy bandlik agentliklari ish qidirayotgan shaxslarga va ishsiz shaxslarga ish tanlash hamda ishga joylashtirish, ish beruvchilarga kadrlarni tanlash boʻyicha xizmatlar koʻrsatadi, shuningdek ishga joylashtirish sohasida axborot va maslahat xizmatlarini taqdim etadi.[9]

Xususiy bandlik agentliklari quyidagi xizmat turlarini koʻrsatadi:

Oʻzbekiston Respublikasi hududida ish qidirayotgan shaxslar va ishsiz shaxslar uchun ish tanlash;

ish beruvchilar uchun kadrlar tanlash;

Oʻzbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni ishga joylashtirish;

ishga joylashtirish sohasida axborot va maslahat xizmatlari. Xususiy bandlik agentliklarining faoliyati “Xususiy bandlik agentliklari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etish boʻyicha ham bir qator kafolatlar mavjud. Bunda xodimlar malaka oshirish davrida oylik ish haqi saqlanib qoladi va safar xarajatlari toʻlab beriladi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

“Kambagʻal va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga oʻqitishga qaratilgan hamda aholi bandligini taʼminlashga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qarori hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-aprelda qabul qilingan 183-sonli “Kambagʻal va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga oʻqitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorida ishsiz fuqarolarni ish bilan taʼminlash va kasb-hunarga oʻrgatish boʻyicha: [10]

“Ishga marhamat” monomarkazlarining maqomi, maqsad va vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish hamda moliyalashtirish tartibi, kasb-hunarga oʻqitish markazlari maqomi, maqsadi va asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va boshqarish, shuningdek, ularni moliyalashtirish tartibi,

ishsiz hamda ish qidirayotgan shaxslarni mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlari asosida kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibini nazarda tutuvchi Ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish tartibi,

nodavlat kasb-hunarga oʻqitish muassasalarining aholi bandligini taʼminlashda ishtirokini qoʻllab-quvvatlash tartibini nazarda tutuvchi “Eng yaxshi kasbga tayyorlash dasturi” boʻyicha nodavlat taʼlim tashkilotlari oʻrtasida ochiq tanlov oʻtkazish tartiblari belgilanib bu borada samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Mehnat Kodeksining V boʻlimi Xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish deb nomlanib, xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tushunchasi, ishni taʼlim bilan birga olib boruvchi xodimlar uchun kafolatlar va kompensatsiyalar, ishlab chiqarish taʼlimi shartnomasi haqida tushunchalar kafolatlar haqida batafsil 367-387-moddalari bilan belgilab berilgan.

Shu bilan birga, *Konstitutsiyasining* 44-moddasida Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Bolalar mehnatining bolaning sogʻligʻiga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning taʼlim olishiga toʻsqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi taʼkidlab berilgan.

Majburiy mehnatni taqiqlash nima? [11]

Bu Mehnat Kodeksining 5 moddasida Mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash prinsipi ekanligi belgilangan.

Majburiy mehnat taqiqlanadi.

Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qoʻllash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda oʻz xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi. Jazo deganda jismoniy shaxsning ixtiyoriy roziligi mavjud boʻlmagani holda, ushbu shaxsga nisbatan uni mehnat faoliyatini amalga oshirishga majbur qiladigan har qanday moddiy, jismoniy yoki ruhiy taʼsir choralarini qoʻllash yoki qoʻllash tahdidi tushuniladi.

Majburiy mehnat:

- harbiy xususiyatga ega boʻlgan ishlarni yoki “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni asosida muqobil xizmatni oʻtash bilan bogʻliq ishlarni bajarishni;

- bajarilishiga favqulodda yoki harbiy holat joriy etilishi sabab boʻladigan ishni;
- sud qarorlarini ijro etish chogʻida qonunchilikka rioya etilishi uchun mas’ul boʻlgan davlat organlari nazorati ostida sudning qonuniy kuchga kirgan qarori boʻyicha jazo sifatida bajariladigan ishni oʻz ichiga olmaydi. Ya’ni bu uchta holat majburiy mehnat deb hisoblanmaydi.

Bolalar mehnatining uning har qanday holatiga toʻsqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanishi ta’kidlandi. Mehnat Kodeksining 118-moddasida Ishga qabul qilishga yoʻl qoʻyiladigan yosh ushbu Kodeksning 20-moddasiga muvofiq shaxslar mehnatga oid huquq layoqatiga va muomala layoqatiga ega boʻlishi bilan, oʻn olti yoshdan yoʻl qoʻyilishi belgilangan.

Shu bilan birga oʻn besh yoshga toʻlishi bilan ota-onadan birining (ota-onasining oʻrnini bosuvchi shaxsning) yozma roziligi bilan yoʻl qoʻyilishi hamda Madaniy-tomosha tashkilotlarida, televideniye, radioeshittirish tashkilotlarida va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shuningdek professional sportchilar bilan ota-onaning har ikkisining (ota-ona oʻrnini bosuvchi shaxsning) roziligi hamda vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan, sogʻligʻiga va ma’naviy kamol topishiga ziyon yetkazmasdan asarlarni yaratish va (yoki) ijro etishda (koʻrgazmaga qoʻyishda) ishtirok etish uchun oʻn besh yoshga toʻlmagan shaxslar bilan mehnat shartnomasini tuzishga yoʻl qoʻyiladi. Koʻrsatilgan yoshga toʻlgan shaxslar qabul qilinishi mumkin boʻlgan ishlar, kasblar, lavozimlar roʻyxatlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari boʻyicha uch tomonlama respublika komissiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Bunday holda xodimning nomidan mehnat shartnomasini uning ota-onasi (ota-onasining oʻrnini bosuvchi shaxs) imzolaydi. Vasiylik va homiylik organining ruxsatnomasida har kunlik ishning eng koʻp yoʻl qoʻyiladigan davomiyligi hamda ish bajarilishi mumkin boʻlgan boshqa shartlar koʻrsatiladi.

Oʻn sakkiz yoshga toʻlmagan shaxslarni ishga qabul qilish va ularning mehnatini qoʻllash Mehnat Kodeksning 411-422-moddalarida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda amalga oshirilishiga kafolatlar belgilangan.[12]

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 44-moddasida Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq toʻlanadigan har yilgi mehnat ta’tilini belgilash orqali ta’minlanishi belgilab qoʻyildi.

Ushbu norma boʻyicha Mehnat Kodeksining 14-bobi Dam olish vaqti deb nomlanib, bunda Konstitutsion normalar mustahkamlangan.

Dam olish vaqti xodim mehnat majburiyatlarini bajarishdan ozod boʻlgan va oʻz ixtiyoriga koʻra foydalanishi mumkin boʻlgan vaqtdir.

- Dam olish vaqtining turlari quyidagilardan iborat:
- ish kuni (smena) davomidagi tanaffuslar;
- har kungi (smenalar oraligʻidagi) dam olish;
- dam olish kunlari (har haftalik uzluksiz dam olish);
- ishlanmaydigan bayram kunlari;
- har yilgi asosiy va qoʻshimcha mehnat ta’tillari;
- xodimning istagiga koʻra dam olish kunida yoki ishlanmaydigan bayram kunida ishlaganlik uchun kompensatsiya sifatida taqdim etiladigan ishdan boʻsh boʻlgan qoʻshimcha kunlar, shuningdek qon va uning tarkibiy qismlari topshirilgan har bir kundan keyin donorlarga beriladigan dam olish kunlari hisoblanadi.

Dam olish vaqti tushunchasi va turlari, Ishdagi tanaffuslar, Dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari, Ta'tillar to'g'risidagi umumiy qoidalar, Har yilgi mehnat ta'tili, Ijtimoiy ta'tillar, Ish haqi qisman saqlanadigan va ish haqi saqlanmaydigan ta'tillar bo'yicha huquqlar va imtiyozlar 201-242-moddalarida belgilab, mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida "Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan.

1993-yil 3-sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida ushbu Konstitutsion norma mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi.[13]

Ushbu Qonun bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi (2-modda)

- yoshga doir pensiya;
- nogironlik pensiyasi;
- oquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin.(3-modda)

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.(4-modda)[14]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-maydagi PQ-5102 son "Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2023 yil 1 yanvardan boshlab: davlat pensiyalarini tayinlashda fuqarolardan mehnat staji, ish haqi, oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish hamda harbiy xizmat davri to'g'risidagi hujjatlarni talab qilish bekor qilinadi.

Bunda, pensiyaga chiqish huquqi paydo bo'lgan chog'ida ishlamaydigan fuqarolarga o'zlarining mehnat daftarchalaridagi mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlarni Bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qilish orqali "Yagona mehnat milliy tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi (keyingi o'rinlarda — YaMMT IDAK)ga kiritish xizmati joriy etildi.

Davlat pensiyalarini tayinlash YaMMT IDAKga kiritilgan elektron ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bunda, mehnat staji, ish haqi, oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish hamda harbiy xizmat davri to'g'risidagi hujjatlar Pensiya jamg'armasi tomonidan YaMMT IDAKdan foydalangan holda elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida olinadigan bo'ldi.[15]

Davlat pensiyalarini tayinlash uchun fuqarolardan faqat pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi talab etiladi.

Pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilanyapti bugungi kunda Prezidentning 17-noyabrdagi "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni bilan 1-dekabrdan ularning miqdori 7 foizga oshirilgan

Xususan:

- pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori — 372 ming soʻm;
- yoshga doir eng kam pensiya miqdori — 725 ming soʻm;
- mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori — 1 mln 50 ming soʻm etib belgilangan.

Shuningdek, **bazaviy hisoblash miqdori (BHM)** 1-dekabrdan 3 foiz miqdorda (7 foiz emas) oʻzgarib, 340 ming soʻm etib belgilangan.[16]

**Natijalar.** Oʻzbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq eʼtirof etiladi va kafolatlanishi, inson huquq va erkinliklari har kimga tugʻilganidan boshlab tegishli boʻlishini taʼkidlamoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, eʼtiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qatʼi nazar, qonun oldida tengdirlar.(19-modda)

Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan oʻzaro huquq va majburiyatlar bilan bogʻliqdir.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qoʻyilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qoʻyishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qoʻllaniladigan huquqiy taʼsir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli boʻlishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining oʻzaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi Konstitutsiyamizda qonuniy asoslar bilan belgilanyapti.

Demakki oʻtkazilgan tadqiqotimiz shuni koʻrsatadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy va ekologik huquqlar – bu inson huquqlarining bir turi boʻlib, u bizga munosib hayot kechirish, jamiyat hayotida toʻlaqonli ishtirok etish uchun zarur shart-sharoitlarni kafolatlaydi, bunda har bir kishi farovonlikka erishishi, oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishi hamda baxtli boʻlishi va oʻz hayotidan rozi boʻlishini taʼminlash nazarda tutar ekan.

Shuningdek, *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi* ikkinchi boʻlimi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bagʻishlanadi. *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksida hamda boshqa qonunlarda shaxslarning tenglik va kamsitishlardan taqiqlash prinsipi asosida erkin mehnat qilish huquqlari kafolatlanadi. Ayniqsa ayollar, voyaga yetmaganlar, nogironlar va boshqa aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun mehnat sohasida alohida kafolatlar va imtiyozlar berilgan va bugungi kunda amalga oshirilib kelinmoqda.*

*Yuqorida ta'kidlab oʻtganimizdek, mehnat qilish huquqi*, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqi shaxsning mutlaq huquqidir.[17]

Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega boʻlish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega ekanligi, har bir inson hech bir kamsitishsiz

teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga egaligi, har bir ishlovchi kishi oʻzi va oilasi uchun insonga munosib yashashni taʼminlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur boʻlganda ijtimoiy taʼminotning boshqa vositalari bilan toʻldiriluvchi daromad olish huquqiga ega har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va oʻz manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ekanligi belgilangan.[18]

Mehnat qilish huquqi Xalqaro normativ hujjatlarda, *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida,* Mehnat kodeksida va boshqa qonun osti hujjatlarida mustahkamlangan va kafolatlangandir. Bunda har bir shaxsning huquqlari kafolatlari batafsil tartibga solingan.

**Muzokara.** Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqi shaxsning mutlaq huquqi ekanligi, har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega boʻlish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega ekanligi, har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga egaligi, har bir ishlovchi kishi oʻzi va oilasi uchun insonga munosib yashashni taʼminlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur boʻlganda ijtimoiy taʼminotning boshqa vositalari bilan toʻldiriluvchi daromad olish huquqiga ega har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va oʻz manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga egaligi belgilanganligi va kafolatlanganligini koʻrib chiqdik. Bu esa jamiki ish beruvchilarga eʼtiborli boʻlishni, yangilangan *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda yangi Mehnat Kodeksida shaxslarning mehnatga oid huquqlari yetarli darajada kafolatlanganligini koʻrsatyapti.*

Konstitutsiyaga kiritilgan oʻzgartishlar “Inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslanishini dastavval belgilandi.[19]

Bu – endilikda mamlakatimizda inson qadr-qimmati ulugʻlanishi, ularning huquq va manfaatlari davlat manfaatlaridan ustun qoʻyilishini anglatadi. Qaysi mamlakatda inson qadr-qimmati davlat manfaatlaridan ustun qoʻyilgan boʻlsa, qaysiki davlatda inson qadri ulugʻlansa, inson manfaati davlat manfaatidan yuksak qoʻyilsa, oʻsha davlatda taraqqiyot boʻlgan, oʻsha mamlakatda rivojlanish boʻlgan.

Shuningdek yangilangan Mehnat kodeksi 581 ta moddaga koʻpaytirildi va ayrim toifadagi xodimlarning mehnati batafsil tartibga solindi. Avvalgi qonunchilik hujjatlari bilan qamrab olinmagan ijtimoiy munosabatlar qamrab olindi. Jumladan:

• kasanachilar, oʻrindoshlar, navbatchilik usulida ishlovchilar, shuningdek mavsumiy, vaqtincha va masofadan ish olib boruvchilar;

• ayrim tarmoq va kasblardagi xodimlar: pedagoglar, shifokorlar, transport xodimlari, sportchilar;

• tashkilot (shu jumladan uning alohida tarkibiy boʻlinmalari) rahbari, uning oʻrinbosarlari, bosh buxgalteri;

• nogironligi boʻlgan shaxslar;

• mikrofirmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlarning xodimlari, jismoniy shaxslar (uyda ishlovchilar);

• xorijiy shaxslar va fuqaroligi boʻlmagan shaxslar;

• noqulay ish sharoitlarida, shuningdek noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida band boʻlganlar.

Bundan tashqari, quyidagilarga bagʻishlangan alohida boʻlimlar kiritildi:

• xodimlarga oid shaxsiy maʼlumotlarni qayta ishlash va himoyalash;

• xodimlarga nisbatan xizmat tekshiruvlarini oʻtkazish tartibi;

• jamoaviy mehnat nizolarini hal etishda soʻnggi chora sifatida ish tashlash oʻtkazish tartib-taomillari;

• mehnat sohasidagi ijtimoiy hamkorlik;

• xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

• davlat mehnat inspeksiyasi, kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, jamoatchilik nazorati subyektlarining ushbu sohadagi vakolatlari koʻrsatilgan holda mehnat toʻgʻrisidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish va kuzatishni belgilab qoʻyildi. [20]

**Xulosa.** Soʻnggi yillarda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar natijasida mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligi ortib bormoqda. Iqtisodiyotimizga yangi tarmoq va yoʻnalishlar kirib keldi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ish beruvchilar soni keskin oshdi, mehnat munosabatlariga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi. Hatto jismoniy shaxslarga ham ish beruvchi maqomi berildi.[21,22]

Mehnat sohasidagi qonunchilikning maqsadi — xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini, ular bilan bevosita bogʻliq boʻlgan yakka mehnat va ijtimoiy munosabatlarda muvozanat va muvofiqlikni taʼminlash asosida tartibga solishdan iborat. Ushbu faoliyat bilan bogʻliq barcha munosabatlarni yangilangan *Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda yangi Mehnat Kodeksi* orqali tartibga solindi va qonun bu borada oʻz yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar yechimini topishda muhim qadamlardan biri boʻldi.

Jamiyat va davlat rivojlanib borar ekan barcha huquq tarmoqlarida jumladan, mehnat huquqida ham odamlarning huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirish boʻyicha yangi islohotlarni amalga oshirishni taqozo etaveradi.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasi 1948-yil 10-dekabr
2. Oʻzbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 126-I-sonli "1966-yil 16-dekabrdagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktga qoʻshilish haqida"gi qarori
3. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
4. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Mehnat kodeksi
5. Oʻzbekiston Respublikasining "Aholi bandligi toʻgʻrisida"gi 2020-yil 20-oktaybrdagi 642-sonli Qonuni
6. Oʻzbekiston Respublikasining "Mehnatni muhifaza qilish toʻgʻrisida"gi 1993-yil 6-maydagi qonuni
7. Oʻzbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida"gi oʻzbekiston respublikasi qonuniga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish haqidagi 2016-yil 22-sentyabrdagi 410-sonli qonuni
8. Oʻzbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog ʻligini saqlash toʻg ʻrisida"gi 1996-yil 29-avgustdagi qonuni
9. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambagʻal va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga oʻqitishga qaratilgan hamda aholi bandligini taʼminlashga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qarori

10. Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2002-yil 1-apreldagi 21-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha nafaqalar tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisida” Nizom
11. Oʻzbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi 938-XII-sonli “Fuqarolarning Davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida”gi Qonun
12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-maydagi PQ-5102 son “Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini soddalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga
13. https://lex.uz/docs/-6445145
14. http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/ekonomicheskie-sotsialnye-i-kulturnye-prava
15. https://lex.uz/docs/-5055690
16. https://oqdaryoovozi.uz/if/56728-ch.html
17. https://constitution.uz/oz/pages/humanRights
18. https://gendermadad.uz/oz/document/2434
19. http://www.insonhuquqlari.uz/
20. https://zenodo.org/records/10659428
21. https://my.gov.uz/oz/life-situations/7
22. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/10/pension/

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).